



XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 22-may VII-26-35-10-134-K/26 Ohangaron tumani

Ohangaron tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2026-yil 10-martdagi 03/08-2308-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi, shuningdek, “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2026-yil 13-apreldagi 1/12-4-1809-sonli yig‘ilish bayoni hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 13-maydagi 03-03-DKB/27-sonli majlis bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi N. Azimovanning hisoboti hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 13-maydagi 03-03-DKB/27-sonli majlis bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2026-yil 10-martdagi 03/08-2308-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumanda joylashgan 2 ta qabristonning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi, tuman bosh imom xatibi, 1 oy muddatda tumandagi mavjud qabristonlarni ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi, tuman IIB, hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i, davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan qabriston nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirsin.

5. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e‘lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**RAXMANOV
IBRAGIMJON
ABSAMATOVICH**

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2026-yil 22-maydagi
VII-26-35-10-134-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Ohangaron tumani “G‘allaquduq” MFYda joylashgan qabristonlarning
qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlari ro‘yxati**

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	“G‘allaquduq” MFY	G‘allaquduq 1	Davletota
2	Qabriston	“G‘allaquduq” MFY	G‘allaquduq 2	G‘allaquduq- Xristian